

Gulasal Niyazmetova

Urganch davlat universiteti Magistratura bo'limi

Adabiyotshunoslik: o'zbek tili

adabiyoti bo'limi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ijodida tarix mavzusi va milliy ruh tushunchasi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarix, vatanparvarlik, milliy ruh, Amir Temur, Bibixonim, Ulug'bek Mirzo, Bobur, Temuriylar sultanati.*

O'zbekiston xalq shoiri, bir qancha turli mavzudagi asarlar muallifi, tarjimon Xurshid Davron 1952- yil 20-yanvarda Samarqand viloyati Samarqand tumani Chordara qishlog'ida xizmatchi oilasida tavallud topgan. 1969-yil Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakulteti kechki bo'limiga o'qishga kirib, kunduzi qurilish tashkilotlarida ishladi. Turli nashriyotlarda muharrir, bo'lim mudiri, Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi rahbari o'rinnbosari vazifalarida faoliyat olib bordi.

Xurshid Davronning ilk she'rlari 1976-yilda, birinchi kitobi (Qadrdon quyosh) 1979-yili bosilib chiqdi. Shundan so'ng shoirning "Shahardagi olma daraxti" (1979), "Tongi bog'lar" (1981), "Uchib boraman qushlar bilan" (1983), "To'marisning ko'zлari", "Bolalikning ovozi", "Qaqnus", "Bahordan bir kun oldin", "Bibixonim" singari kitoblar yaratdi.

Xurshid Davronning ona xalqimiz tarixiga qiziqqanligi, o'tgan ajdodlarimiz yutuqlaridan faxrlanishi natijasida bir qancha tarixiy-ma'rifiy mavzuda asarlar yaratdi. Ayniqsa, Temuriylar tarixi uni juda qiziqtirdi. Shu sababli deyarli tarixiy asarlari Sohibqiron Temur va uning avlodlari, Bibixonim va Temuriylar vakili shoh va shoir Bobur mirzo haqida bir qator dramatik asarlar yozdi.

Xurshid Davron 90-yillarda ijodini nasriy janrlarga qaratdi.. U o'tmishda yashagan unutilmas tarixiy siymolar hayoti va faoliyati bilan qiziqib, ular haqidagi mo'tabar qo'lyozma manbalar bilan tanishdi. Bu qiziqish natijasida „Samarqand xayoli” (1989), „Sohibqiron nabirasi” (1995), „Shahidlar shohi yoxud Shayx Kubro tushlari” (1998-2008) , „Bibixonim qissasi” (2006), kabi tarixiy-ma'rifiy qissalar va „Alg'ul” (1995), „Boburshoh sog'inchi” (1996) pyesalarini yaratdi.

Xurshid Davron tarixiy asarlarida Vatanga bo'lgam muhabbat yaqol sezilib turadi. Masalan, uning “Bibixonim qissasi yohud tugamagan doston” qissasini olaylik. Bu qissada Yusupov nomli obrazda Vatanga bo'lgan mehri va milliy ruh uning nutqi, xatti-harakati, oy-fikrlari orqali yaqol ko'zga tashlanadi. U asarda Bibixonimning mumyolangan jasadini olib kelish uchun qanday harakatlar qilmaydi. Bu ishni

bajariyotganida o'zda dadilik hattoki bor budini berib bo'lsa ham milliy boyligimiz, tariximizni o'z joyiga qaytarish uchun jonini ham ayamaydi. Xurshid Davron quydagi she'ri orqali buni ochib bergen:

"Tantana	va	to'rtinchi	hammol	haqida	hikoya"	.
To'rt		hammol	ko'tarib	borar		tobutni,
Yusupov		xotini		tuqqandek		xursand.
Cho'ntak		bo'shligini		tamom		unutib,
Yuragi		ilohiy		xayollarga		band.
Ko'	p	kuygan	ko'	ksida	kezinar	titroq,
Unutdir		tashvishlar,		unutdir		alam.
Xuddi		shoirlardek		biroz		maqtanchoq,
Boladek	oq	ko'ngil		edi	bu	odam.
U		chiday				olmadi,
Tantana						bilan
Hammollarga		dedi		dilini		xushlab:
-	Ey,	nodon	gumrohlar,	bilmaysiz	bu	dam
Kimning		tobutini		turarsiz		ushlab?
Bu		Temur		xotini		Bibixonimdir,
Sevimli,		oqila,	go'	zal		xotini.
Temur		harbga	ketib,	o'nta	xat	bitsa:
Shu		xotinga	bitgan	o'nta		xatini.
Tobutni		zaminga	qo'yар	to'rt		"gumroh",
Alanglab		olishar:	"Bu	tush		emasmi?"
Bu	odam	yo	jinni	va	yoki	ahmoq,
Biri		yaqinlashar:		"Hushyormi,		mastmi?!"
Semiz		hammol	aytar:	"Temur		xotinin
Ko'tarib		yurishga		rozi		emasmiz!
Agar		haqimizga		ozroq		qo'shmasang
Sening		bu	ishingni	ado		etmasmiz!
Men		gapni	cho'zmayman,	novvoy		emasman,
Puldan		qo'sh,	shu	zahot	yo'lga	tushgaymiz.
Sen		aytgan	manzilga	dam	ham	olmasdan
Yelgaymiz,		bamisli		pushday		uchgaymiz!
To'rtinchi		hammol	-	yosh,	oriq	igit.
Ularga		qo'shilmay		qarab		turardi.
Boshqa		hammollarning		so'	zin	eshitmay
Oislarda		edi			xayol	surardi.
Musavvir		bo'laman	deb		qigandi	ahd,
Bag'riga		olgandi	uni		yot	shahar.
Xayolchan		ko'	zida		balqirdi	hayrat,

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

Bu hayrat eng toza dillarda yashar.Yolg'iz yetim edi, qon-qardoshi yo'q.Mardikor bozori uni fo'ydirar.U bilar, shoir va musavvirniOchlik erkalaydi, to' qlik o'ldirar.Maktabda bo'yoqlar berishar - toshdanYasalgan haykalni tasvirla, deya.U bo'lса, ertaklar tinglab quyoshdan,

Kallaklangan tutga chizdi madhiya.Ustozi suratni ko'rgach baqirdi,So'ng'qo'ydi,"Chiz!" deya qog'oz gullarni.O'shandan buyon u hammollik qilib,Topardi bo' yoqqa kerak pullarni.
... Boshqa hammollarga qarab turdi-da,- Qanday so'z! - dedi so'ng yoshlanib ko'zi.- Akalar, bu ishga pul olsak - kulgu!aqimni olinglar ... Roziman, rozi!Semiz hammol kular:
- Ahmoqsan, ahmoq!Oila boqqanda yaxshi bilarding.Balki bizlardan ham chiqib o'tkirroq,

Mana shu akangni rosa shilarding!Musavvir ko'zida porlagan hayratZulmatga cho' kar-u aylanar dardga.Semiz hammol aytar: - o'tayotir vaqt,Ayting, rozimisiz biz qo'ygan shartga?!

Yusupov oyog'i kuygan tovuqdek,Aylandi uch ham mol girdidan uch bor.Yalindi, tinmadi u chug' urchuqdek,Baribir barchasi tugadi bekor.Yusupov soatni bahridan kechdi,

Uzatdi, uch hammol bosh chayqadi: -Kam! So' ng yerga o'tirib tuflisin yechdi,Keyin yechib berdi kostumini ham."Shimimni yechaymi?" - dedi u kulib,"Ha, bo'pti", - deyishdi, biz tushunamiz.Keyinroq ... manzilga yetsak, yecharsiz.Ana, endi, aka, yo'lga tushamiz!"

Har qanday xalqdayam shunday zotlar bor,Pul bilan o'lchaydi hayotni ular.Ularning oyog'i ostida xor-zorBo'lar ona tuproq, dalalar, gullar.Otasi: - Suv! - deya qo'lin uzatsa,- Haqini bering! - deb shoshirgan shular.Onasin nonni berib kuzatsa,Eng so'nggi nonini yashirgan shular.Sevgi - pul, Vatan - pul, Qani, keb qolingSotilar vijdoru, sotilar imon!Ular xiyonatning. makrning quli,Ularning ko'ksida yashamas armon.Oh, ular juda ko'p, Vatanin sotganAmir Muzaffarlar - mitti xotiblar. O'zini asray debBolasin otgan,

Otasin o'ldirgan Abdullatiflar.Taxt uchun, fahsh uchun va mansab uchunElini, dilini xo'rلان shular -Dinidan voz kechar zarra o'kinmay,O'z ona tilini zo'rлан shular!... To'rt hammol ko'tarib borar tobutni.Yusupov xotini tuqqandek xursand.Oyoq yalangligin tamom unutib,Shirin orzularga u bo'ladi band.Yaxshiyam dunyoda Yusupovlar bor,unyo ham ularning hovuchidadir.Vatanning azobi,Vatanning dardiUlarga merosdir - dil ichidadir.Ha, ular juda ko'p Yurtin saqlagan.Dushmanga yuzma-yuz turgan shiroqlar.Ularning hayoti - zulmat qo'ynidaAbadiyat uchun yongan chiroqlar.

...Manzilga yetganda to'rtinchи hammolMung'aygan ko'zlarin tikib zamingaShivirlar: - Onamni topdim ... onam - shu ayol...Rahmat, ko'p narsani angladim, aka!U ketar - ko'zida bedor uqubat,Ko'zin nuri moziy zulmatin teshar.Jaynoqi olmadek bo'lib sukunatShu yigit ohidan uzilib tushar.eyin birdan

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

to'xtar ... Yomg'irdan keyinNam tortgan tuproqqa pichoq botadi.U rasm chizarkan yonib, entikib,Vatan uzra yangi tong otadi.

U rasm chizadi - uning xayoliOlis-olislargacha uchib yetadi, Hech qachon ko'rmaymiz biz bu rasmniUni ko'r yomg'irlar yuvib ketadi ..."¹⁴

Xurshid Davron tarjimon sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning she'rlari ham 40 dan ortiq jahon tillariga tarjima qilingan.Shu mehnatlari inobatga olingan holda O'zbekiston xalq shoiri, 1989-yilda Mahmud Qoshg'ariy nomidagi xalqaro mukofot, 1997-yilda "Do'stlik" ordeni, 2009-yilda Xalqaro "Oltin qalam milliy mukofoti kabi bir qator unvonlar bilan taqdirlandi. Bu qalami o'tkir yozuvchi va shoirdan yana yuqorida sanab o'tilgan asarlari kabi bugungi kunning dolzARB mavzusidagi asarlar kutib qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbek adiblari S. Mirvaliyev , R. Shokirova. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016
- 2.Samarqand xayoli. X.Davron. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1995.
- 3.Bibixonim qissasi yohud tugamagan doston. X. Davron. Toshkent, "Sharq" nashriyotmatbaakonsernining bosh tahririyati, 1990.

¹⁴ Xurshid Davron.Bibixonim qissasi yohud tugamagan doston. 1990 yil.